	Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar ..... 699 <a href="#">Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li</a>	699
	Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ..... 705 <a href="#">Zokirova Nargiza Akbarjonovna</a>	705
	Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari ..... 710 <a href="#">Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</a>	710
	Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 714 <a href="#">Yaxyayeva Sojida Abduraximovna</a>	714
	Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi ..... 718 <a href="#">Berdiyeva Malika</a>	718
	Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish ..... 721 <a href="#">Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</a>	721



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	726
<b>Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi</b>	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari .....	731
<b>Nazarova Mohigul Akmalovna</b>	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar .....	736
<b>Arabova Muxiba Bazarovna</b>	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств .....	740
<b>Хомидова Камола</b>	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
<b>Бекназаров Собиржон</b>	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni .....	748
<b>Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li</b>	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari .....	752
<b>Bobonorova Qundizxon Quralbay qizi</b>	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
<b>Bobonazarov Orif Abrayqulovich</b>	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
<b>Мусаева Елена Казимовна</b>	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi .....	767
<b>Sh. L. Rahmonova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	770
<b>Saidova Dilbar Erkinovna</b>	
Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish .....	773
<b>Xakimova Xosiyat Jurayevna</b>	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari .....	776
<b>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'appon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati .....	785
<b>Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich</b>	
Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari .....	790
<b>Fozilova Mohigul Farxodovna</b>	
Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов .....	794
<b>Исаматдинова Машхура Икромжон кизи</b>	
O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari .....	799
<b>Shokirov Sherali Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich</b>	
Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili .....	803
<b>Nurmanova Nazira</b>	
Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati .....	807
<b>Toshova Shaxnoza Tojidorovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish .....	811
<b>Badalov Dilmurod Abdixalilovich</b>	
Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari .....	817
<b>Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi</b>	
Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking .....	822
<b>Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich</b>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....	826
<b>Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna</b>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
<b>Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna</b>	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish .....	835
<b>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</b>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
<b>Murodova Sarvigul Raxim qizi</b>	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы .....	843
<b>Ким Нигора Каримовна</b>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish .....	847
<b>Usmonova Xafiza</b>	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari ....	852
<b>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</b>	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish .....	857
<b>Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi</b>	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....	861
<b>Xaydarov Oxunjon Murodjonovich</b>	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati .....	866
<b>B. Normamatova</b>	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari .....	869
<b>Bahranova Hulkar Bahran qizi</b>	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
<b>Berdiyev Bahodir Ravshanovich</b>	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari .....	875
<b>Botirova Zilola Nodirovna</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
<b>Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi</b>	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish .....	882
<b>Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi</b>	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
<b>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</b>	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
<b>M. Ibragimova</b>	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida .....	894
<b>Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi</b>	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
<b>Murodillayeva Durdona Dilmurodovna</b>	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji .....	900
<b>Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi</b>	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni .....	903
<b>Quvvatova Ozoda Gulbek qizi</b>	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida .....	906
<b>Rashidova Xurriyat Sulaymonovna</b>	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
<b>Ravshanova Kamola Toxirovna</b>	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar .....	911
<b>To'rayeva Kamola Vosidjon qizi</b>	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari .....	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish .....	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish .....	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish .....	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn .....	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services.....	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students .....	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health .....	938
<i>Irgashev Shokhrukh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar .....	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari .....	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari .....	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil .....	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf? .....	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	



# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYACHI SHAXSIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR

Gaziyeva Nigora shamsiddinovna

Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası  
katta o'qituvchisi

Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna

Angren universiteti "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi  
4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining poydevori bo'lib, unda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kasbiy salohiyati, shaxsiy fazilatlari va pedagogik yondashuvi kelajak avlodning ma'naviy hamda intellektual shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada zamonaviy tarbiyachi shaxsig qo'yilayotgan pedagogik talablar, ularning mazmun-mohiyati, innovatsion ta'lim yondashuvlari hamda xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim islohotlari, davlat siyosatida maktabgacha ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari chuqur yoritilgan. Pedagog shaxsining o'z ustida ishlashi, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi, bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olib, individual yondashuvni qo'llay bilishi bugungi kunda asosiy talab sifatida e'tirof etilmoqda. Maqolada ushbu yo'nalishdagi ilg'or xorijiy tajribalar va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlari ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi shaxsi, zamonaviy pedagogik talablar, innovatsion ta'lim, kompetensiya, psixologik yondashuv.

**Abstract:** The preschool education system serves as the foundation of social development, and the professional competence, personal qualities, and pedagogical approach of educators working in this field directly influence the moral and intellectual formation of the younger generation. This article analyzes the modern pedagogical requirements placed on preschool educators, their meaning and essence, innovative educational approaches, and international practices. The article also examines the ongoing educational reforms in Uzbekistan, the state's attention to preschool education, and issues related to developing teachers' professional competence. Furthermore, it highlights the importance of educators' continuous self-development, mastering modern technologies, and applying individualized approaches based on children's psychological characteristics. The study additionally reviews advanced foreign experiences and their applicability within the context of Uzbekistan.

**Key words:** preschool education, educator's personality, modern pedagogical requirements, innovative education, competence, child psychology.

**Аннотация:** Система дошкольного образования является основой общественного развития, и профессиональная компетентность, личные качества и педагогический подход воспитателей напрямую влияют на духовное и интеллектуальное формирование подрастающего поколения. В статье анализируются современные педагогические требования, предъявляемые к личности воспитателя дошкольного образовательного учреждения, их сущность, инновационные образовательные подходы и международный опыт. Также раскрываются вопросы образовательных реформ, проводимых в Республике Узбекистан, внимание государства к сфере дошкольного образования и развитие профессиональной компетентности педагогов. Отмечается важность постоянного профессионального роста воспитателя, освоения современных технологий и применения индивидуального подхода с учётом психологических особенностей детей. Кроме того, рассматривается передовой зарубежный опыт и возможности его адаптации в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, личность воспитателя, современные педагогические требования, инновационное обучение, компетентность, психология ребёнка.

## KIRISH

“Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni”, – deb hisoblaymiz. “Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q”, – degan edi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident tomonidan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar “bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi” sifatida e'tirof etilgani bejiz emas. Ushbu tizimlar o'zaro bog'liq holda ishlaganda, yosh avlodga ilmga muhabbat, tafakkur kengligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat shakllanadi. Natijada jamiyatda ma'naviy uyg'onish, intellektual yuksalish va innovatsion tafakkur muhitini yaratish mumkin bo'ladi. Shuningdek, MTT tarbiyachisi, maktab o'qituvchisi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilar “yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni” deb e'tirof etilishi, ularning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatini yanada yuksak darajaga ko'tarmoqda. Chunki aynan shu toifa vakillari yosh avlodni ma'naviy yetuk, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv va raqobat muhitida inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki bola shaxsining shakllanishi, ijtimoiy moslashuvi va kognitiv rivoji aynan maktabgacha yosh davrida asoslanadi. Shu bois tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifati, uning pedagogik mahorati, psixologik tayyorgarligi va zamonaviy kompetensiyalari ta'lim sifatining eng muhim omilidir. Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki bolalarning dunyoqarashi, xulqi, hissiy holati va qadriyatlarini shakllantiruvchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachining pedagogik madaniyati, kommunikativ ko'nikmalari, empatiyasi va innovatsion tafakkuri – zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining poydevoridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimi samaradorligi eng avvalo unda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bevosita bog'liqdir, chunki tarbiyachi bolaning ilk ijtimoiy tajribasini shakllantiruvchi, uni jamoaga moslashtiruvchi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Shu bois bugungi kunda tarbiyachidan nafaqat kasbiy mahorat, balki keng dunyoqarash, kommunikativ salohiyat, psixologik tayyorgarlik va innovatsion tafakkur talab qilinadi. Pedagogika fani nuqtayi nazaridan tarbiyachining shaxsiy sifati uch asosiy yo'nalishda ko'riladi: axloqiy-ma'naviy fazilatlar, kasbiy kompetensiyalar va ijodiy yondashuv, hamda har bir yo'nalish bolaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Tarbiyachining axloqiy yetukligi uning kasbiy faoliyatidagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bola kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilib ularni o'z hayotiga ko'chiradi. Shuning uchun tarbiyachi o'zida odob, halollik, mehribonlik, sabr-toqat, adolat, vijdonlilik kabi insoniy fazilatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi zarur, chunki shaxsiy namuna tarbiya jarayonining eng samarali vositalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ham pedagog shaxsiga nisbatan yuqori axloqiy mas'uliyat va kasbiy etika talab qilinadi, xususan tarbiyachi o'z faoliyatida milliy qadriyatlar, insonparvarlik, bolaga hurmat, uning qadr-qimmatini e'zozlash tamoyillariga amal qilishi lozimligi belgilangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy tarbiyachi faoliyati faqatgina bolalarni parvarishlash va o'yin faoliyatini tashkil etish bilan chegaralanmaydi. U pedagogik, psixologik, kommunikativ, ijtimoiy va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi kerak. Kasbiy kompetensiyalar deganda tarbiyachining bolalar bilan ishlashdagi malakasi, innovatsion ta'lim usullarini qo'llay bilish qobiliyati, ota-onalar bilan samarali hamkorlik o'rnatish ko'nikmasi hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos yondashuvni tanlay olish qobiliyati tushuniladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Tarbiyachi kompetensiyalar modeli”da tarbiyachidan quyidagi yo'nalishlarda tayyorgarlik talab qilinadi:

- pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish malakasi;
- bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmasi;



- kommunikativ madaniyatni rivojlantirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Mazkur talablar nafaqat kasbiy faoliyat samaradorligini oshiradi, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Har bir tarbiyachi bola ruhiyatini his etishi, uning kayfiyatini, hissiy holatini, o'ziga xos xarakterini to'g'ri tushuna bilishi kerak. Bu jarayonda empatiya – ya'ni boshqalarning his-tuyg'usini tushunish va ularga mos ruhiy qo'llab-quvvatlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiyada bu holat “emosional intellekt” deb ataladi. Bolalarning rivojlanish bosqichlarini yaxshi bilgan, ularning ehtiyojarini sezgan tarbiyachi ularning ichki dunyosiga kirib, individual yondashuv orqali ijobiy muhit yaratadi. Shuning uchun tarbiyachi uchun psixologik barqarorlik, muvozanat, ijobiy fikrlash va sabr-toqat kasbiy muvaffaqiyat kalitidir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy maktabgacha ta'lim jarayonida ijodiy yondashuv yetakchi o'rin tutadi. Tarbiyachi bolalarga tayyor bilimlarni emas, balki o'z fikrini erkin ifoda etish, kuzatish, sinash, topish va kashf etish imkonini yaratishi zarur.

Bugungi ta'lim jarayoniga interfaol metodlar – “aqliy hujum”, “rol o'ynash”, “konseptual xarita”, “case study” kabi usullarni kiritish tarbiyachining innovatsion tafakkurini rivojlantiradi. Shu orqali bola o'qish jarayonida faol ishtirokchi, yaratuvchi va mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxsga aylanadi.

Tarbiyachi shaxsida ijodiy yondashuvning shakllanishi, avvalo, uning o'z kasbiga bo'lgan muhabbatidan kelib chiqadi. Kasbni sevgan insonda yangilik yaratish istagi kuchli bo'ladi. Bunday pedagoglar bolalarga nafaqat bilim, balki ilhom, ishonch va motivatsiya ham bera oladi.

Tarbiyachi – jamiyat oldida ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan shaxsdir. Chunki aynan u orqali jamiyatning ertangi qiyofasi shakllanadi. Shu sababli tarbiyachi nafaqat bolalarga, balki ota-onalarga, mahalla va jamoatchilikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining ijtimoiy mas'uliyati, eng avvalo, o'z kasbiga sadoqat, bolalarga mehr, jamiyat oldidagi burchni anglash va ta'lim-tarbiya jarayonidagi halollikda namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar:

1. **Pedagogik bilim va ko'nikmalar** – tarbiyachi bolalar psixologiyasi, ta'lim metodikalari va pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilishi, ulardan samarali foydalanishi talab qilinadi.
2. **Pedagogik mahorat va kreativlik** – bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun ijodiy yondashuvni qo'llay bilish, o'yin va interaktiv usullar yordamida ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish zarur.
3. **Kommunikativ ko'nikmalar** – bolalar bilan, ularning ota-onalari hamda jamoa a'zolari bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lish.
4. **Sabrlilik va mehr-shafqat** – bola psixologiyasi va individual xususiyatlarini hisobga olib, sabr-toqatli va mehribon muhit yaratish.
5. **Moslashuvchanlik va zamonaviy o'zgarishlarga tayyorlik** – ta'lim jarayonidagi yangi pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va me'yorlarni doimiy o'rganish va amaliyotga tatbiq etish.
6. **Axloqiy-psixologik barqarorlik** – mas'uliyat, halollik, pedagogik etikaga rioya qilish va stressga bardoshli bo'lish.
7. **Jamoaviy hamkorlik qobiliyati** – o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda ishlashga tayyorlik.
8. **Shaxsiy rivojlanishga intilish** – doimiy o'z-o'zini takomillashtirish, malaka oshirishga intiluvchanlik.
9. **Bolalarning individual ehtiyojarini hisobga olish** – har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llash.

Zamonaviy tarbiyachi – bu nafaqat bolalarga bilim beruvchi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynovchi, insonparvar va ijtimoiy faol mutaxassisdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan har bir tarbiyachi shaxsiy fazilatlarini, psixologik tayyorgarligi, madaniyati, nutqi va muloqot mahorati bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozim. Chunki bola ilk ijtimoiylashuv jarayonini aynan tarbiyachi orqali amalga oshiradi.

Tarbiyachining halolligi, mehribonligi, sabr-toqati, o'z ishiga sadoqati – bu kasbning poydevoridir. Uning har bir so'zi va harakati bolalar ongida chuqur iz qoldiradi. Shu sababli tarbiyachining shaxsiy madaniyati, ma'naviyati va pedagogik mas'uliyati yuqori darajada bo'lishi zarur. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi

tubdan yangilanmoqda. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi” hamda O’zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari zamonaviy tarbiyachidan innovatsion fikrlashni, ijodkorlikni va bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olishni talab etmoqda. Zamonaviy pedagogik talablar quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi: insonparvarlik va milliy qadriyatlarga tayanish; har bir bola o’zining milliy o’zligiga, tili, dini, urf-odatlariga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalanishi lozim; shaxsga yo’naltirilgan yondashuv (har bir bolaning qobiliyati, temperamenti va rivojlanish sur’ati farqlidir; tarbiyachi bu farqlarni inobatga olgan holda individual ishlashni bilishi kerak). Innovatsion metodlardan foydalanish. Bugungi pedagog axborot texnologiyalarini bilishi, o’yin, loyiha, STEAM texnologiyalari kabi metodlarni mashg’ulotlarga tatbiq etishi zarur. Psixologik barqarorlik. Tarbiyachi o’z hissiyotini boshqara olishi, stress holatlarda to’g’ri yo’l tutishi va bolalarga ijobiy emotsional muhit yaratishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyo miqyosida maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning erkin fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilishiga e’tibor qaratmoqda. Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasida tarbiyachi bolaning rahbari emas, balki hamrohi, yo’lboshchisi sifatida ko’riladi; u bola faoliyatiga nazoratdan ko’ra yo’naltirish orqali ta’sir etadi. O’zbekistonda ham shu tajribalar asosida “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi joriy etildi. Bu dasturda tarbiyachidan bolalar bilan teng muloqotda bo’lish, ularni mustaqil fikrlashga undash va ijodiy topshiriqlar orqali rivojlantirish talab etiladi. Tarbiyachining psixologik kompetensiyasi bolalar psixikasini tushunish, ularning kayfiyatiga qarab pedagogik ta’sir usulini tanlay olish qobiliyatini bildiradi; u har bir bolaning emotsional holatini kuzatib, zarurat tug’ilganda individual yondashuvni amalga oshiradi.

Kommunikativ malaka esa tarbiyachining ota-onalar, hamkasblar va rahbarlar bilan to’g’ri, samimiy aloqada bo’lishini bildiradi, samarali muloqot muhitida bola, tarbiyachi va ota-ona o’rtasida ishonchli hamkorlik shakllanadi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, zamonaviy tarbiyachi uchun doimiy ravishda o’z ustida ishlash, malaka oshirish va o’z fanidagi yangiliklarni o’rganish, har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini kuzatish va individual dastur asosida ishlash, axborot texnologiyalaridan foydalanishni chuqur o’zlashtirish, psixologik madaniyat va emotsional intellektni rivojlantirish, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg’unligini saqlash ustuvor ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim tizimi mamlakatimiz kelajagini belgilovchi eng muhim bo’g’indir; tarbiyachi shaxsi, uning kasbiy tayyorgarligi va insoniy fazilatlarini bu tizimning poydevoridir. Shu bois, tarbiyachiga qo’yiladigan zamonaviy pedagogik talablar – bu nafaqat kasbiy standartlar to’plami, balki kelajak avlodni barkamol inson sifatida voyaga yetkazish uchun zarur bo’lgan ijtimoiy zaruratdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ–152-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3334234?ONDATE2=09.11.2021&action=-compare>
2. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (yangi tahrir). – Toshkent: Adolat, 2020. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam davlat o’quv dasturi. Toshkent, 2022.
4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. Toshkent: O’zbekiston, 2021.
5. Gaziyeva N. Sh., Nizamova Sh. T. Tarbiyachi-pedagogning kasbiy sifatlarini takomillashtirish. Uslubiy qo’llanma. Toshkent, 2025.
6. Irbutayev N. X., Gaziyeva N. Sh. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. Toshkent, 2024.
7. UNICEF. Early Childhood Education in Central Asia: Country Report – Uzbekistan. 2023.
8. OECD. Starting Strong VI: Supporting Meaningful Interactions in Early Childhood Education and Care. Paris, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.